

GERMANIYANING IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Saparbayeva Munisa Turebek qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomiya Universiteti Xalqaro Iqtisodiyot va Menejment
fakulteti 1-bosqich talabasi munisasaparbayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Yevropaning eng yirik va eng barqaror iqtisodiyotlaridan biri bo'lgan Germaniyaning zamonaviy iqtisodiy holatini har tomonlama yoritishga bag'ishlangan. Bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va iqtisodiy beqarorlik sharoitida Germaniya qanday qilib yetakchi pozitsiyasini saqlab qolayotgani mazkur ishning asosiy tadqiqot obyekti tashkil etadi. Maqolada Germaniya iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari — yalpi ichki mahsulot (YAIM), inflyatsiya darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi, tashqi savdo balansi hamda moliyaviy barqarorlik omillari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, Germaniyaning sanoat salohiyati, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy modeli va global bozordagi raqobatbardoshligi alohida e'tibor markaziga olinadi. Mashhur va dunyoga tanilgan nemis kompaniyalarining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning innovatsion yondashuvi hamda milliy iqtisodiyot rivojiga qo'shayotgan hissasi aniq misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Germaniya iqtisodiyoti, yalpi ichki mahsulot (YAIM), inflyatsiya darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi, makroiqtisodiy barqarorlik, sanoat ishlab chiqarishi, tashqi savdo, eksport va import, savdo balansi, iqtisodiy o'sish, moliya tizimi, raqobatbardoshlik, yirik nemis kompaniyalari, innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish modeli, daromad.

Annotation: This article is devoted to a comprehensive analysis of the current economic condition of Germany, one of the largest and most stable economies in Europe. In the context of globalization, technological progress, and economic uncertainty, the study focuses on how Germany manages to maintain its leading position. The article provides an in-depth analysis of the main macroeconomic indicators of the German economy, including gross domestic product (GDP), inflation rate, unemployment rate, foreign trade balance, and factors of financial stability. In addition, special attention is paid to Germany's industrial potential, export-oriented economic model, and competitiveness in the global market. The role of well-known and globally recognized German companies in the national economy, their innovative approaches, and their contribution to economic development are illustrated through concrete examples.

Keywords: German economy, gross domestic product (GDP), inflation rate, unemployment rate, macroeconomic stability, industrial production, foreign trade, exports

and imports, trade balance, economic growth, financial system, competitiveness, major German companies, innovations, economic development model, income.

Аннотация: Данная статья посвящена всестороннему анализу современного состояния экономики Германии — одной из крупнейших и наиболее стабильных экономик Европы. В условиях глобализации, технологического прогресса и экономической нестабильности основное внимание уделяется тому, каким образом Германия сохраняет свои ведущие позиции. В статье проводится углублённый анализ ключевых макроэкономических показателей экономики Германии, включая валовой внутренний продукт (ВВП), уровень инфляции, уровень безработицы, баланс внешней торговли, а также факторы финансовой устойчивости. Кроме того, особое внимание уделяется промышленному потенциалу Германии, экспортно-ориентированной модели экономики и её конкурентоспособности на мировом рынке. Роль известных и всемирно признанных немецких компаний в национальной экономике, их инновационные подходы и вклад в экономическое развитие страны раскрываются на основе конкретных примеров.

Ключевые слова: экономика Германии, валовой внутренний продукт (ВВП), уровень инфляции, уровень безработицы, макроэкономическая устойчивость, промышленное производство, внешняя торговля, экспорт и импорт, торговый баланс, экономический рост, финансовая система, конкурентоспособность, крупные немецкие компании, инновации, модель экономического развития, доход.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiy tizimi tezkor o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari ta’siri ostida rivojlanmoqda. Ana shunday murakkab va raqobat kuchli sharoitda ayrim davlatlar o‘z iqtisodiy barqarorligini saqlab qolish bilan birga, global iqtisodiyotda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Shunday mamlakatlardan biri Germaniya bo‘lib, u Yevropaning eng yirik iqtisodiyoti va dunyo miqyosida muhim sanoat hamda savdo markazi sifatida tan olingan. Germaniya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan sanoat, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalar va kuchli moliya tizimi bilan ajralib turadi. Mamlakatda avtomobilsozlik, mashinasozlik, kimyo sanoati hamda yuqori texnologiyalar sohalari (IT) iqtisodiy o‘sinhning asosiy omillari hisoblanadi. So‘nggi yillarda Germaniya turli sinovlardan o‘tgan: pandemiya va boshqa global omillar iqtisodiy o‘sinhni sekinlashtirgan, biroq tiklanish bosqichlari ham kuzatilgan. Umuman olganda, Germaniya barqaror va kuchli iqtisodga ega davlat hisoblanadi. Uning aholisi 84 832 670 kishi (2024)dan iborat, milliy valyutasi yevro (EUR, €) hisoblanadi.

Bundan tashqari Germaniya dunyoning raqobatdosh davlatlari reytingida top 10 talikka kiradi.


YAIM tahlili (2019-2025)

2019-yilda Germaniya iqtisodiyoti barqaror faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli YAIM dastlabki 2019 yil qiymatiga nisbatan $-4,1\%$ ga pasaydi, ya‘ni 3,96 trillion USD dan 3,80 trillion USD ga tushdi. Bu pasayishga karantin choralari, ishlab chiqarishning to‘xtashi, ichki iste‘molning keskin qisqarishi va eksportning pasayishi sabab bo‘ldi. 2021-yilda iqtisodiyot tiklana boshladi: YAIM $+3,7\%$ ga oshib, taxminan 3,94 trillion USD ga yetdi. Karantinlar yumshadi va avtomobil hamda mashinasozlik sanoati qayta faollashdi. 2022-yilda o‘shish sekinlashdi: YAIM $1,3\%$ ga oshib, taxminan 3,99 trillion USD bo‘ldi. Asosiy salbiy omil - Rossiya–Ukraina mojarosi va undan kelib chiqqan energetika inqirozi edi. 2023-yilda iqtisodiyot kichik pasayishga yuz tutdi: YAIM $-0,27\%$, taxminan 3,98 trillion USD ga tushdi. Energiya narxlari yuqori, inflyatsiya $5,9\%$ atrofida, sanoat ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi. Shuningdek, global sekinlashuv tufayli eksport buyurtmalari kamaydi. 2024-yilda iqtisodiyot asta-sekin barqarorlashdi: YAIM $-0,2\%$, taxminan 3,97 trillion USD darajasida bo‘ldi. Energiya narxlarining pasayishi va inflyatsiyaning $2,2\%$ ga tushishi iqtisodiy faollikni normallashtirdi, ammo yuqori foiz stavkalari, mehnat bozori muammolari va global savdo hajmining pasayishi to‘liq tiklanishga to‘sqinlik qildi. 2025-yilda esa Germaniya iqtisodiyoti yengil o‘shishga o‘tdi: YAIM $+0,2\%$, taxminan 3,98 trillion USD bo‘lib, iqtisodiyot pandemiya va global muammolardan keyin barqarorlikni saqlashga urindi:



Ishsizlik darajasi (2019-2025)

2019-yil Germaniya mehnat bozori uchun barqaror yil bo‘ldi: ishsizlik darajasi 3,1%, taxminan 1,3 million kishi ishsiz edi. Ishchi kuchiga yuqori talab, avtomobil va mashinasozlik sanoati faoliyati hamda eksportning oshishi mehnat bozorini mustahkamladi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi ta‘sirida ishsizlik keskin oshdi: daraja 4,3% ga ko‘tarildi. Karantin choralari, ishlab chiqarishning to‘xtashi, xizmatlar sektori va turizm pasayishi mehnat bozoriga jiddiy bosim ko‘rsatdi. 2021-yilda iqtisodiyot tiklana boshladi, pandemiya cheklovlari yumshadi: ishsizlik darajasi 3,6% ga tushdi. Ishlab chiqarish va eksportning qayta faollashishi hamda xizmatlar sektorining jonlanishi mehnat bozorini mustahkamladi. 2022-yilda Rossiya–Ukraina urushi va energetika narxlarining oshishi mehnat bozoriga bosim ko‘rsatdi, ammo YAIM o‘sishi davom etdi. Ishsizlik 3,0%. 2023-yilda Germaniya iqtisodiyoti sekinlashdi va YAIM pasaydi. Ishsizlik darajasi 3,1%ga yetdi. Bunga energiya narxlarining yuqoriligi, ishlab chiqarishning susayishi, eksport buyurtmalarining kamayishi va foiz stavkalarining oshishi sabab bo‘ldi. 2024-yilda iqtisodiyot asta-sekin barqarorlashdi: ishsizlik 3,2% bo‘ldi. Bu o‘sishning sabablari global iqtisodiy sekinlashuv, sanoatning strukturaviy muammolari, avtomobil sanoatining elektrlashtirish jarayoni va yuqori foiz stavkalari tufaylidir. 2025-yilda esa Germaniya mehnat bozori asta-sekin tiklandi: ishsizlik darajasi 3,1% ga yetib, iqtisodiyotning barqarorlashayotganiga dalolat berdi:

**Yirik kompaniyalar**

BMW kompaniyasi. BMW, to'liq nomi Bayerische Motoren Werke, Germaniyaning aksiyadorlik jamiyati bo'lib, ochiq aktsiyali va bozorga chiqqan korporatsiya sifatida faoliyat yuritadi. Kompaniya dunyodagi eng yirik va taniqli premium avtomobil ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lib, yuqori obro'ga ega:



BMW 2024-yilda taxminan 142,4 milliard yevro daromadga erishgan va global bozor bo'yicha 2,45 million avtomobil hamda 210 mingdan ortiq mototsikl sotgan. Kompaniya dunyo bo'ylab 33 ta ishlab chiqarish joyiga ega bo'lib, ishchi xodimlar soni 159 ming atrofida. BMW ning avtomobil segmentidagi rentabelligi (EBIT margin) 2024-yilda taxminan 6,3% ni tashkil qilgan. 2024-yilda BMW avtomobillarining eksport nisbati 83,8% bo'lib, kompaniya global yetkazib berish va ishlab chiqarish tarmoqlari orqali dunyoning asosiy bozorlariga yetkazib beradi. Avtomobil sotuvlarining 72,7% avtomobillar, 2,3% mototsikllar, qolgan qismi esa moliyaviy xizmatlar va servislar hisobiga to'g'ri keladi.

Adidas kompaniyasi. Adidas - ochiq aktsiyali kompaniya, ya'ni aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan va dunyo bo'yicha keng faoliyat yuritadi.



2024-yilda Adidas guruhining moliyaviy holati juda mustahkam bo'ldi: daromad €23,683 millionga yetdi. Adidas keng xilma-xildir: kompaniya sport poyabzali, sport

kiyimlari, sport aksessuarlari va jihozlar ishlab chiqaradi. Adidasning global hajmi va keng tarqalgan tarmoqlari, yuqori daromad va sof foyda, hamda keng mahsulot portfeli uni sport kiyimlari poyabzallar bozorida dunyoning yetakchi nomlaridan biriga aylantiradi. 2024-yildagi kuchli moliyaviy ko‘rsatkichlar va barqaror ishlab chiqarish ta‘minot za njiri Adidas brendining obro‘ sini yana-da mustahkamladi.

Bosch kompaniyasi. Bosch kompaniyasi 1886-yilda asos solingan va cheklangan mas‘uliyatga ega jamiyat shaklida tashkil etilgan.



2024-yilda Bosch jahon bo‘yicha muvaffaqiyatli ishlagan: global savdo hajmi taxminan 90.3 milliard yevro ga teng bo‘ldi. Jami xodimlar soni dunyo bo‘yicha taxminan 417,900 kishi. Bosch sanoat-texnologiya, avtomobil komponentlari, iste‘mol mahsulotlari, hamda energiya va binolar texnologiyalari sohalarida keng ko‘lamda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaradi. Obro‘ si jihatidan, Bosch — jahonda ishonchli, barqaror va diversifikatsiyalangan kompaniya sifatida tanilgan. U uzoq yillardan beri avtomobilsozlikdan tortib, uy-maishiy texnika va sanoat yechimlarigacha keng turdagi mahsulotlar bilan bozorda faol bo‘lib, texnologik innovatsiyalar, sifat va keng global tarmoq bilan ajralib turadi. 2024-yildagi yuqori savdo hajmi va barqaror ish bilan Bosch o‘zining obro‘ va bozor pozitsiyasini mustahkamlagan.

Xulosa qilib aytganda, 2019–2025 yillar oralig‘ida Germaniya makroiqtisodiyoti bir qancha o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu vaqt oralig‘ida turli sabablarga ko‘ra Germaniya iqtisodiyotida o‘rish va pasayishlar kuzatildi. Shunga qaramasdan, Germaniya iqtisodiyoti dunyoda yetakchiligini davom ettirdi. Germaniyaning yetakchi kompaniyalari - BMW, Bosch va Adidas - mamlakat iqtisodiyotining turli sektorlarida global yetakchi rol o‘ynaydi. Ushbu kompaniyalar Germaniyaning sanoat, texnologiya, moliya va sport moda sohalarida yetakchi bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini va xalqaro obro‘ sini mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://www.destatis.de/EN/Home/_node.html
2. World Bank Group. Olingan:
<https://www.worldbank.org/en/country/germany>
3. TradingEconomics. Olingan;
<https://tradingeconomics.com/germany/unemployment-rate>
4. <https://fred.stlouisfed.org/series/gdp>
5. <https://bmwgroup.com>
6. <https://www.bosch.com/websites-worldwide>
7. <https://www.adidas.com>